



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Razzaqova Muqaddas<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchisi.

E-mail: [razzakovamuqaddas@gmail.com](mailto:razzakovamuqaddas@gmail.com)

tel: 90 658 90 81

## O'ZBEK TILI FANIDAN "BUYUK ALLOMALAR" MAVZUSINI ORGANIZATSIYASINI SAMARALI USULLARI

***Annotatsiya:** Maqolada O'zbek tili fani dasturiga muvofiq aniq mavzu bo'yicha dars tashkil etish, guruhlarini shakllantirish, o'qitish metodlari, shuningdek, o'qituvchilarni kitobxonlikka o'rgatish borasidagi taklif va tavsiyalar xususida so'z yuritiladi.*

***Tayanch so'zlar:** dastur, darslik, metod, usul, pedagogik hamkorlik, badiiy asar, kitobxonlik.*

## ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ТЕМЫ "ВЕЛИКИЕ УЧЕНЫЕ" ПО УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

***Аннотация:** В статье рассматривается организация уроков по определенной теме в соответствии с программой узбекского языка, формирование групп, методика обучения, а также предложения и рекомендации по обучению учеников чтению.*

*Ключевые слова:* программа, учебник, метод, способ, педагогическое сотрудничество, художественное произведение, чтение.

## EFFECTIVE METHODS OF STUDYING THE TOPIC “GREAT SCIENTISTS” IN THE LESSONS OF THE UZBEK

*Annotation:* The article discusses the organization of lessons on a specific topic in accordance with the program of the Uzbek language, the formation of groups, teaching methods, as well as suggestions and recommendations for teaching students to read.

*Keywords:* program, textbook, method, method, pedagogical cooperation, art work, reading.

**Kirish (Introduction).** Bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida bo‘layotgani kabi ta‘lim jarayonida ham yangidan-yangi islohotlar, innovatsiyalar joriy etilmoqda. Bundan asosiy maqsad esa kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni jahon standartlariga muvofiq keladigan barkamol yetuk kadrdar qilib tarbiyalashdir. Buning uchun o‘quvchilarni faqat ta‘lim jarayonida darsliklarda berilgan ma‘lumotlar bilan cheklanib qolmasdan ko‘proq mustaqil mutolaaga o‘rgatish va o‘qigan har bir kitob va badiiy asardan tegishli xulosalar chiqarishga o‘rgatish lozim. Chunki, darsliklarda berilgan har qanday mavzu badiiy asarlar o‘qish va ulardan mavzuga oid ma‘lumotlarni o‘rganib borish orqali yanada mustahkamlanadi. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya‘ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma‘naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi” [1, 49].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi 147-sonli qarori 3-ilovasi bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta‘lim va kasb-hunar ta‘limining umumta‘lim fanlari bo‘yicha malaka talablari”da O‘zbek tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi sifatida “O‘quvchilarning kundalik va kasbga oid

sohalarda faoliyat olib borishi uchun O‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish; o‘quvchilarning o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish; o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini-o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallagan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shallantirishdan iborat” [3, 149] ekanligi ta’kidlanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Davlat tili ta’limini tashkil etish va ularda samarali metodlarini qo‘llash borasida bir qator ilmiy-metodik ishlar, shuningdek, monografik tadqiqotlar yaratildi. Bu borada ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar uchun yaratilgan ilmiy ishlanmalar, yaratilgan darslik va metodik ham alohida diqqatga sazovor.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi adabiyot va san’at, tarix, ma’naviyat, ta’lim-tarbiya masalalari yuzasidan ilgari surilgan nazariy fikrlar metodologik asosni tashkil etadi. Maqolada mavzusini yoritishda davlat tili ta’limini samarali tashkil etish borasida bir qator olimlar, xususan, A.Xojiyev, R.Rasulov, Sh.Yusupova, T.Yusupova, Sh.Yuldashevalarning tadqiqot va maqolalariga suyanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O‘zbek tili fanidan 8-sinflarning dastur va darsligida [2: 28] “Buyuk allomalar (Nisbat qo‘shimchalarining birdan ortiq qo‘llanishi, imlo va talaffuzi)” mavzusi berilgan. Biz quyida mazkur mavzuni o‘quvchilarga o‘rgatishni tashkil etishda o‘z amaliy tajribalariimizga tayangan holda o‘z tavsiyalarimizni taklif etamiz.

Avvalo dars rejasiga ko‘ra uning bosqichlari va tashkiliy qism yo‘lga qo‘yiladi. Shundan so‘ng uyga vazifa sifatida berilgan Bahri Umarovning „Non – tinchlik ramzi“ she’ri asosida o‘quvchilar oldindan taqsimlangan kichik guruhlarda o‘zlari tayyorlab kelgan ko‘rinishlarini havola qilishadi. O‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi kichik muhokamadan so‘ng topshiriq baholanadi.

O‘tilgan nutqiy va grammatik mavzularni mustahkamlash va yakka tartibda ham baholash maqsadida quyidagi test topshiriqlari bajariladi. (Test savollarining javoblari A. B. C. kabi harflar bilan belgilanmasdan boshqa harflar tanlanadi. Chunki yangi mavzu uchun kichik guruhlar tashkil qilinishga asos bo‘ladi).


### I guruh

1. – rizq-ro‘zimiz. Niqtalar o‘rniga qaysi qatoridagi rasm to‘g‘ri keladi?

X



B



C



2. Qaysi qatorda orttirma nisbat qo‘shimchasi ishtirok etgan fe‘l berilgan?

O. O‘tkazdi D. Berildi K. O‘qidi

3. Qaysi qatorda majhul nisbatdagi fe‘l qo‘llangan?

N. O‘tkazdi R. Berildi S. O‘qidi

4. -ir,-iz qo‘shimchalari qaysi nisbatga tegishli?

A. Orttirma nisbat B. Majhul nisbat C. O‘zlik nisbat

5. “Non – tinchlik ramzi” she’rining muallifi...

T. Qambar Ota S. Dilshod Rajab Z. Bahri Umarov

6. Qaysi qatorda birgalik nisbat qo‘shimchasi berilgan?

K. -l,-in M. -sh, -ish N. -tir, -iz

7. Qaysi qatorda aniq nisbatdagi fe‘l berilgan?

I. O‘qidi J. Tarandi K. To‘kildi

8. Tut qoqildi. Fe‘l qaysi nisbatda?

V. Orttirma nisbat Y. Majhul nisbat X. O‘zlik nisbat

Javoblar quyidagi jadvalga joylashtiriladi.

1	6	3	8
5	7	2	4

## II guruh

1. “Eng kerakli kasb” matnida qaysi kasb egasi bahsni boshlaydi?



B



C



D

2. Bola qoqildi. Fe’l qaysi nisbatda?

F. Orttirma nisbat D. Majhul nisbat E. O’zlik nisbat

3. Qaysi qatordagi gapda birgalik nisbatdagi fe’l qatnashgan?

R. Bolalar suhbatlashdi Q. Mehmonxonaga joylashdi S. Maqola yozdi

4. Tara...di. Nuqtalar o’rniga qaysi qatordagi qo’shimchani qo’ysak o’zlik nisbatdagi fe’l hosil bo’ladi?

V.- sh S. -l U.-n

5. Qaysi qatordagi so’z o’zlik nisbatga tegishli?

O. O’qidi N. Tarandi M. To’kildi

6. Qaysi qatorda orttirma nisbatga xos bo’lgan so’z berilgan?

J. O’qidi I. Yutqazdi K. To’kildi

7. Ko’r so’ziga qaysi qo’shimchani tanlasak orttirma nisbat hosil bo’ladi?



G.-in L.-ish Y. –sat

Javoblar quyidagi jadvalga joylashtiriladi.

1	6	2	
5	7	3	4

### III guruh

1. “Erinchoq va ....”. Qaysi qatordagi rasmni qo‘ysak Q.Hikmat qalamiga mansub she‘r nomi kelib chiqadi?



2. -dir,-tir qo‘shimchalari qaysi nisbatga tegishli?

L. Orttirma nisbat M. majhul nisbat N. o‘zlik nisbat

3. Qaysi qatordagi so‘zlarga orttirma nisbat qo‘shimchalari qo‘shilgan?

U. Oqizdi V. Tarandi X. Chizildi

4. Qaysi qatordagi so‘zga majhul nisbat qo‘shimchasi qo‘shilgan?

O‘. Oqizdi X. Tarandi G‘. Chizildi

5. Qaysi qatorda majhul nisbat qo‘shimchasi berilgan?

B.-in P. -ish R. –sat

6. Qaysi qatorda orttirma nisbatga xos bo‘lgan so‘z berilgan?

J. O‘qidi E. Yutqazdi K. To‘kildi

7. Ko‘r so‘ziga qaysi qo‘shimchani tanlasak orttirma nisbat hosil bo‘ladi?

G.-in      L.-ish      K. –sat

Javoblar quyidagi jadvalga joylashtiriladi.

1	6	3	5
	7	2	4

O‘tilgan mavzu bilan yangi mavzuni bo‘lash maqsadida Mirzo Ulug‘bek va non haqidagi rivoyat so‘zlab beriladi va yangi mavzuga bog‘lanadi. Yangi mavzu bayonida o‘quvchilarda dastlab *Alloma* so‘zining izohli lug‘atdagi ma’nosi bilan tanishtiriladi. **Alloma (ar.)** – eng bilimdon, zo‘r olim . Ilm-fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan shaxs; qomusiy olim [3, 72].

Keyinchalik nutqiy mavzuga doir bir necha allomalar haqidagi videorolik havola qilinadi. Vidiorolikdan keyin test natijalari e’lon qilinadi. Jadvaldagi raqamlarni ketma-ketlikda joylasa, test javoblaridan XORAZMIY, FAROBIY, BERUNIY nomlari hosil bo‘ladi va shu tarzda yangi uchta guruhlar tashkil qilinadi.

Guruhlar allomalarning tug‘ilgan yillarini inobatga olgan holda joylashadilar. Shu o‘rinda uyga vazifa bo‘yicha o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘tkazilgan nazorat testi asosida yangidan kichik guruhlar shakllantiriladi. Keyinchalik ularga yangi o‘tiladigan mavzu mohiyatini anglatuvchi so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘lingan holda qog‘ozchalarda taqdim etiladi. Bunda o‘quvchilar har bir to‘g‘ri ishlagan topshirig‘i uchun so‘zning bir bo‘g‘inini ko‘lga kiritishi nazarda tutiladi. (Masalan: *-al*, *-lo* bo‘g‘inlari she’r asosidagi ko‘rinish hamda test natijalarilari uchun beriladi. )



Nutqiy mavzu darslikda berilgan 1-mashq “Allomalar kimlar?” matni bilan davom ettiriladi. Matnda berilgan *yetkazadigan, keltirilgan, ataladi, ketishgan, yaratilgan, hisoblanadi* kabi fe’llar taxtaga yoziladi va nisbat qo‘shimchalari tahlil qilinadi.

Mashqdagi fe’llarni tahlil qilish bilan birgalikda o‘quvchilar fe’l nisbatlari so‘zlarga birdan ortiq qo‘llanishi ham mumkinligini aniqlay olishlari kerak. Tahlildan keyin o‘quvchilarning chiqargan xulosalari qoida va unda berilgan misollar bilan qiyoslanadi.

**Bilib oling!** Fe’l nisbatlarini yasovchi qo‘shimchalar fe’l asosiga birdan ortiq qo‘shilib kelishi mumkin.

Yasa+moq – aniq nisbat

Yasa+n+tir+moq – orttirma nisbat

Yasa+n+tir+il+moq – majhul nisbatda

**Yangi mavzuni mustahkamlash:** Nutqiy mavzu darslikda berilgan 1-mashq “Allomalar kimlar?” matni bilan davom ettiriladi va grammatik mavzuga bog‘lash maqsadida matnda berilgan *yetkazadigan, keltirilgan* so‘zlarini 1-guruh, *ataladi, ketishgan* so‘zlarini, 2-guruh *yaratilgan, hisoblanadi* so‘zlarini, 3-guruh esa nisbat qo‘shimchalarini aniqlab tahlil qilishlari kerak. So‘zlardagi nisbat qo‘shimchalari qoraqalpoq tilida qanday yozilishi va aytilishi haqida, shuningdek, nomlanishdagi farqlarni ham aytib o‘tishlari kerak. Tahlillar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi quyidagi taqdimot orqali tekshiriladi:



**1-mashq. Mashqdagi fe'llarni tahlil qilamiz:**

Yet + **kaz** + adigan  
kel + **tir** + **il** + gan.....  
ata + la + di  
ket + **ish** + gan  
yarat + **il** + gan  
hisobla + **n** + a + di




Qoraqalpoq tili bilan bog'lash maqsadida o'quvchilarga yuqoridagi qaysi so'zdagi qo'shimchalar qoraqalpoq tilidagi nisbat (dareje) bilan aynan bir xil ekanligini topish so'raladi. (To'g'ri javob: kel+**tir**+**il**-gan).

Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun darslikda berilgan 2-mashqni uch nafar o'quvchi (har bir guruhdan bir o'quvchi) taxtada, qolgan o'quvchilar esa maxsus dasturda bajaradilar.

Yuvmoq –yuvdirmoq – yuvdirilmoq; yuvinmoq – yuvintirmoq; ko'rmoq – ko'rinmoq – ko'rintirmoq; ishlamoq – ishlatmoq – ishlatirilmog; yashirmoq – yashirinmoq – yashirintirmoq; yozmoq – yozdirmoq – yozdirilmoq; yopmoq – yopinmoq – yopintirmoq –yopintirilmog.

(Yuqoridagi topshiriqlar bo'yicha 1-2- mashqlarni bajargach o'quvchilar -ma, -lar bo'g'inlarini qo'lga kiratadilar).



**Xotira mashqi.** Bu topshiriqda videorolikda ma'lumot berilgan allomalar nomlari to'g'ri tanlanib o'qilsa E.Vohidovning "O'zbeгим" qasidasidan parcha hosil bo'ladi. Topshiriqni to'g'ri bajara olgan guruh **BUYUK** so'zini qo'lga kiritadi.

# Buyuk



avlodidan,

Asli nasling balki O‘zluq, balki Tarxon, o‘zbeginim.



Tuzdi-yu


jadvalin,



Sirli osmon tokiga ilk – qo‘ydi o‘zbeginim.



Menga bir jahon-u, menga Bayron bir jahon.



Lek dek bobom bor, ko‘ksim osmon, o‘zbeginim.

Dars xulosasiga ko‘ra o‘quvchilar barcha topshiriqlar bo‘yicha qo‘lga kiritgan rag‘bat qog‘ozchalaridagi bo‘g‘inlarni umumlashtirganlarida **Buyuk allomalar** so‘zi yasaladi.

Dars yakunida guruhlar rag‘batlantirilib, “Buyuk allomalar” nominatsiyalari bilan taqdirlanadi. Eng faol guruh aniqlanab, o‘quvchilar yakka tartibda ham baholanadi.

Darslikdagi 2-topshiriq uyga vazifa sifatida berilib, berilgan mashq matni bilan tanishib savollarga javob tayyorlab kelishi tushuntiriladi. Shuningdek,

E.Vohidovning “O‘zbekim” qasidasida yana qaysi buyuk shaxslarning nomi keltirilganligini aniqlab, daftarlaringizga yozib kelishi topshiriladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, mazkur topshiriqlarni bajarish davomida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning jummalarni to‘g‘ri tuza olishi, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish yoki qilolmaslik, qo‘shimchalarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘llash holatlarni nazorat qilib boriladi va yakunda bu narsalar alohida qayd etib o‘tiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, O‘zbek tili ta’limida o‘tilgan mavzularni o‘quvchilarning ona tili bilan qiyosiy tahlil qilgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Zero, “...O‘quvchilarning ona tilidan olgan bilimlariga tayanish nazariy ma’lumotlarni tushuntirish uchun ketadigan vaqtni tejaydi, amaliy mashqlarning ko‘proq badarilishi uchun imkon yaratadi. Ona tili materillaridan foydalanish nafaqat fonetika yoki grafika bo‘limlarini, balki tilning barcha sathlarini o‘rganishda e’tiborga olish lozim” [5,11].

Albatta, bunday mashg‘ulotlarni tashkil qilish o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham g‘ayrat, shijoat talab qiladi. Shu ma’noda, o‘zbek tilidan tashkil etiladigan darslarda adabiyot namunalari bilan tanishtirib borilsa, o‘quvchilarning o‘zbek adabiyoti nazariy masalalarini chuqurroq o‘rganishlariga, adabiy tahlil ko‘nikmalarining rivojlanishi uchun imkon yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida qoraqalpoq tilida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning o‘zbekcha so‘z boyligini oshirish, nutqiy malakalarini rivojlantirish, ma’naviyatini boyitishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan sinflarda O‘zbek tili fanini o‘rgatishda o‘quvchilarning ona tili bilan qiyosiy o‘rgatish dars samaradorligini yanada oshiradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.



2. Muhitdinova X. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib oriladigan maktablarning 8- sinfi uchun darslik (qayta ishlangan 4-nashr). –T.: O‘qituvchi, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6- apreldagi 147- sonli qarori 3- ilovasi bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim va kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari”.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T.: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2006.

5. Yuldasheva Sh. Davlat tili ta’limida o‘quvchilar nutqiy malalkalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari (ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan akademik litseylar misolida) Pedagogika. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008.